



SAMARALI MUZOKARALARDA IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISHGA E‘TIBOR QARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida bir qator davlat rahbarlari va BMT Bosh kotibi bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trump bilan uchrashuvda O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlari batafsil muhokama qilindi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Prezident Donald Trumpni ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi yuksak muvaffaqiyatlari bilan samimiy tabrikladi. Uning xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi o‘tkir mojarolarni tinch

qilish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro nufuzni yuksaltirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni yana bir bor qo‘llab-quvvatladi.

Turli darajalardagi siyosiy muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotgani,



rahbarlari bilan o‘tkazgan uchrashuv va muzokaralarining samarali natijalarini yuksak baholadi.

Fuqaro aviatsiyasi, tog‘-kon sanoati, muhim minerallar, moliya, innovatsiyalar, kimyo, energetika va boshqa ustuvor

Muzokaralar yakunida davlatimiz rahbari Prezident Donald Trumpni o‘zi uchun qulay muddatda O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishga taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald

mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda o‘zaro hamkorlikda katta yuksalishga erishilgani, barcha darajalardagi almashinuv va muloqotlar jadallashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.



Mintaqaviy va global ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. Joriy yil 5-sentabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot yakunida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko‘rib chiqildi.

yo‘l bilan hal etish borasidagi shaxsiy hisssasi va sa‘y-harakatlari alohida qayd etildi.

O‘z navbatida AQSH yetakchisi Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya

ishbilarmonlik aloqalari faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

AQSH Prezidenti kuni kecha O‘zbekiston yetakchisining AQSHning 50 dan ortiq yirik kompaniya va banklari



yo‘nalishlarda shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi.

Ushbu loyiha va kelishuvlar ikki mamlakatda o‘n minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishi ta’kidlandi.

Trampning uchrashuvi ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda o‘tdi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Koreya alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada

O‘zaro savdo ko‘rsatkichlari barqaror oshib bormoqda. Koreya kompaniyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari hajmi 8 milliard dollardan oshdi.

► Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTONNING MUHIM TASHABBUSLARI BMT BOSH ASSAMBLEYASI MINBARIDA YANGRADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida o‘z ishini boshlagan BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi umumsiyosiy munozaralarida nutq so‘zladi.

Sessiya raisi Annalena Berбок boshchiligidagi o‘tkazilayotgan munozaralarning birinchi kunida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, a‘zo davlatlar yetakchilari — Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trump, Braziliya Federativ Respublikasi Prezidenti Luis Inasiu Da Silva, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip

Erdog‘an, Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Siril Ramafosa, Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon, Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron hamda boshqa mamlakatlar rahbarlari qatnashmoqda.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 80-SESSIYASIDAGI NUTQI

Hurmatli Rais xonimlari!
Hurmatli Bosh kotib janoblari!
Delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley anjumani — 80-sessiyasi bilan sizlarni qutlashdan mamnunman.

Bugungi yig‘ilishimiz shiddat bilan o‘zgarayotgan murakkab global vaziyatda o‘tmoqda. Bu esa Tashkilotimiz faoliyati va uning kelajagiga qaratilgan sa‘y-harakatlarini yuksak baholaymiz.

Bu borada “BMT — 80” tashabbuslarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz, Kelajak uchun paktga qat‘iy sodiqligimizni tasdiqlaymiz.

qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqealarni vujudga keltirmoqda.

Biz Bosh kotib Antoniu Guterrish Janobi Oliylarining eng og‘ir va o‘tkir global masalalarni murosas bilan hal etish uchun Tashkilotimizni asosiy platforma sifatida saqlab qolishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini yuksak baholaymiz.

Bu borada “BMT — 80” tashabbuslarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz, Kelajak uchun paktga qat‘iy sodiqligimizni tasdiqlaymiz.

Biz zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirish tarafdorimiz.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!
Biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini olib bormoqdamiz. Buning uchun ortga qaytmas islohotlarimizni izchil davom ettiryapmiz.

Ustuvor maqsadimiz — mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir

fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Bunga, avvalo, ta‘lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o‘rinlari yaratish orqali erishmoqdamiz.

► Davomi 2-betda



2025-yil 24-sentabr, 197-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 80-SESSIIYASIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta’lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Eng asosiysi — o’qituvchi va ustozlik kasbining obro’si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz.

Pedagoglarning o’zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O’zbekistonda Butunjahon professional ta’lim sammitini o’tkazishni taklif etamiz.

Shuningdek, mamlakatimizda ilg’or sog’liqni saqlash tizimini yaratmoqdamiz. Ertaga Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida bizning tashabbusimiz bilan bolalar saratoni va boshqa og’ir kasalliklarga qarshi kurashga bag’ishlangan yuqori darajadagi tadbir o’tkaziladi. Unga barcha xorijiy hamkorlarimizni taklif etamiz.

Yana bir muhim yo’nalish — gender siyosati. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tabdirkorlik sohasida xotin-qizlarning roli bundan buyon ham mustahkamlashni maqsad qilganmiz. Keng mintaqamiz miqyosida esa Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o’tkazib borish tarafdorimiz.

Yana bir bor ta’kidlamoqchiman: biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo’lida olgan majburiyatlarimizga sodiqmiz. 2030-yilga borib “daromadi o’rtadan yuqori” bo’lgan mamlakatlar qatoriga kirishni niyat qilganmiz.

Shu maqsadda ochiq va pragmatik siyosatimizni izchil davom ettiramiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Bundan 8 yil muqaddam biz ushbu yuksak minbardan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo’shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilganimizni e’lon qilgan edik.

Bugun chuqur mamnuniyat bilan ta’kidlash mumkin: biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi.

So’nggi yillarda mintaqamizda o’zaro savdo, investitsiyalar va transport tashuvlari hajmi besh barobargacha ko’paydi. Biz qo’shma investitsiya jamg’armalari, chegara hududlarida savdo va sanoat zonalarini tashkil qilypmiz, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqdamiz.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish yo’lida samarali mexanizimga aylanganini ham umumiy yutug’imiz sifatida e’tirof etamiz.

Shuni qat’iy ishonch bilan aytishim mumkinki, bugungi kunda Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni boshlandi.

Mintaqamiz o’zining hamjihatligi, barqarorligi, o’ziga xosligi bilan xalqaro munosabatlar tizimida alohida subyekt sifatida tobora mustahkam o’rin egallamoqda.

Maqsadlarimizga erishish uchun barcha xorijiy sheriklarimiz bilan o’zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga asosiy e’tibor qaratamiz. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalari bilan mintaqamizda qator yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirishni taklif etamiz.

Boshlanishi 1-betda

Prezident Shavkat Mirziyoyev so’zining avvalida ishtirokchilarni BMT Bosh Assambleyasining yubiley anjumani — 80-sessiyasi bilan samimiy qutladi. Mazkur yig’ilish shiddat bilan o’zgarayotgan murakkab global vaziyatda o’tayotgani, bu esa Tashkilot faoliyati va uning kelajagiga yangicha yondashuvlar bilan qarashga chorlayotganini qayd etdi.

— Hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o’rmi va roli zaiflashmoqda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqeiklarni vujudga keltirmoqda, — dedi O’zbekiston rahbari.

Prezidentimiz Bosh kotib Antoniu Guterrishning eng og’ir va o’tkir global masalalarini murossa bilan hal etish uchun BMTni asosiy platforma sifatida saqlab qolishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuksak baholadi. “BMT — 80” tashabbuslarini to’liq qo’llab-quvvatladi, mamlakatimiz Kelajak uchun paktga qat’iy sodiqligini tasdiqladi.

O’zbekiston yetakchisi zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari O’zbekistondagi Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar jarayoniga batafsil to’xtaldi. Ta’kidlanganidek, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O’zbekistonnin barpo etish siyosati olib borilmoqda.

— Ustuvor maqsadimiz — mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o’zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir, — dedi Prezident.

Jumladan, ECOSOS va UNCTAD shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag’ishlangan xalqaro forum o’tkazish, UNIDO bilan sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, “yashil” makon barpo etish hamda demografik barqarorlikka erishish bo’yicha dasturlarni qabul qilish tashabbuslari bilan chiqamiz.

Shu bilan birga, Bosh Assambleyaning Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini qo’llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Global va mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish haqida gapirganda, albatta Afg’oniston to’g’risida to’xtalmaslik mumkin emas.

Afg’on xalqining tinch va osuda hayotga bo’lgan intilishini qo’llab-quvvatlash uchun xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirish zarur. Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, bu davlatning yakkalanib qolishiga yo’l qo’ymaslik o’ta muhimdir.

Biz Afg’onistonda katta iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqchimiz. Ushbu mamlakat orqali xalqaro transport va energetika koridorlarini rivojlantirish bo’yicha Tashkilotimizning alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz.

G’azo sektoridagi tobora keskin yomonlashib borayotgan gumanitar inqirozni ham e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Harbiy harakatlarni to’xtatish va siyosiy muzokaralarni davom ettirishga chaqiramiz. Biz BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, “ikki xalq uchun — ikki davlat” tamoyilini amalga oshirishning qat’iy tarafdorimiz.

Ukraina atrofidagi vaziyat ham barchamizni jiddiy tashvishga solmoqda. Bu muammoni diplomatik yo’llar bilan hal etish bo’yicha yuqori darajadagi muloqotlar boshlanganini olqishlaymiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Markaziy Osiyoda Global aksilterror strategiyasini bajarish bo’yicha samarali ishlar olib borilmoqda. BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo’yicha Mintaqaviy Kengash tuzilgan. Biz uni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirishni taklif etamiz.

Bu tuzilma muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo’yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo’lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini O’zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyormiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Bugungi tahdidlarga to’la dunyoda global transport tizimi naqadar zaif ekanligiga amin bo’lyapmiz. Bu muammolar, birinchi navbatida, dengizga chiqish imkoniyati bo’lmagan rivojlanayotgan davlatlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Xalqaro tranzit koridorlarining xavfsizligini ta’minlash va samarali logistika zanjirlarini yaratish o’ta muhimdir. Bu borada “Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun o’zaro

transport bog’liqligini mustahkamlash” global mexanizmini joriy etish vaqti keldi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, tobora o’tkir tus olayotgan iqlim o’zgarishi muammolariga ham alohida to’xtalmoqchiman. Jumladan, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari jahon hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo’lishi lozim. Biz Orolbo’yi ekotizimini qayta tiklash bo’yicha ishlarni izchil davom ettirypmiz.

So’nggi yillarda dengizning qurigan tubida 2 million gektar maydonda sho’rga chidamli cho’l o’simliklari ekildi. 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foiz qismida yashil qoplamalar hosil qilinadi.

Yana bir muhim muammo — bu suv resurslarining taqchilligidir. Hozirda dunyo aholisining ikki milliarddan ortig’i toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Biz mamlakatimizda Suvni tejash bo’yicha butunjahon forumini o’tkazishni rejalashtirganmiz. Mazkur anjuman yakkalanib bo’yicha suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash mo’ljallanmoqda. Bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun alohida “yo’l xaritasi”ni qabul qilish niyatidamiz.

Ekologik o’zgarishlarning yana bir salbiy ko’rinishi — iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganidir. Afsuski, ushbu yo’nalishda aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza hanuzgacha yaratilmagan. Biz bu jiddiy masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo’yicha Global pakt qabul qilish tarafdorimiz.

Hurmatli yig’ilish ishtirokchilari!

Mamlakatlar o’rtasida raqamli rivojlanish va sun’iy intellektidan foydalanishda tengsizlikning oldini olish juda muhim ahamiyatga ega.

Sog’liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarida sun’iy intellektning amaliy yechimlari va modellari beg’araz almashishga qaratilgan Xalqaro hamkorlik mexanizmi yaratishni taklif etamiz.

Yana bir ustuvor masalaga alohida to’xtalmoqchiman.

Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o’sib kelayotgan yosh avlod qo’lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do’slik, o’zaro ishonch va hurmat kabi oljanob g’oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir.

Bu borada Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta’sis etish va uning qarorgohini O’zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari suramiz. Biz jamiyatimizdagi bag’rikenglik siyosatini izchil amalga oshirmoqdamiz.

Shu bilan birga, islom ma’rifati g’oyalari chuqur o’rganish va dunyoga targ’ib etish bo’yicha sa’y-harakatlarimizni faol davom ettiramiz. Yaqin oylarda keng mintaqamiz uchun noyob bo’lgan Islom sivilizatsiyasi markazini ochamiz.

Buyuk ajdodlarimiz — mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosining alohida taqdimotini Birlashgan Millatlar Tashkilotida o’tkazish niyatidamiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Yangi O’zbekiston barcha davlatlar bilan o’zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o’rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro’yobga chiqarish yo’lida o’z hissasini qo’shishga doim tayyormiz. E’tiboringiz uchun rahmat.

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda Koreya yetakchi oliy ta’lim muassasalarining 4 ta filiali, mamlakatimiz hududlarida professional ta’lim markazlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya Eksimbanki va uning fondlari bilan ko’p yillar davomida samarali sheriklik qilib kelinayotgani, loyihalarining umumiy portfeli 3,5 milliard dollarga yetganiga yuksak baho berildi.

Muhim xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, kimyo, mashinasozlik, qishloq xo’jaligi, transport, aviatsiya, biotexnologiyalar va boshqa ustuvor yo’nalishlardagi loyihalarni ilgari surishni nazarda tutadigan yangi uzoq muddatli Texnologiya va sanoat sherikligi dasturini tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

Shu ma’noda, Hukumatlararo komissiyaning bo’lajak yig’ilishini samarali qilib o’tkazish muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy, shu jumladan, “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” formatida hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Koreya Prezidentini davlat tashrifi bilan O’zbekistonga kelishga taklif etdi.

Albaniya Prezidenti Bayram Begay bilan uchrashuvda siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o’zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko’rib chiqildi.

Ikki tomonlama munosabatlarni, shu jumladan, siyosiy muloqot va iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini yaratish orqali sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga o’zaro qiziqish bildirildi.

Savdo va investitsiya sohalaridagi hamkorlik salohiyatini ro’yobga chiqarish, agrar va oziq-ovqat sanoati, transport va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

BMT Bosh Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuvda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo’yicha milliy vazifalarni amalga oshirish doirasida BMT bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko’rib chiqildi.

Shubhat avvalida davlatimiz rahbari Antoniu Guterrishni BMTning yubiley sessiyasi bilan samimiy tabriklab, uning tashkilot tizimini zamonaviy voqeikka mos ravishda isloh qilish borasidagi tashabbuslarini qat’iy qo’llab-quvvatladi.

O’Z A

YANGI O‘ZBEKISTONNING MUHIM TASHABBUSLARI BMT BOSH ASSAMBLEYASI MINBARIDA YANGRADI

So’nggi yillarda O’zbekistonda kamba-g’allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishilgani ta’kidlandi. Bu, avvalo, ta’lim va ilm-fan sohasining o’zgartirilayotgani, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarining barpo etilayotgani, “yashil” energetika va transport infratuzilmasining modernizatsiya qilinayotgani, kichik biznesning har tomonlama rivojlantirilayotgani va natijada millionlab ish o’rinlari yaratilayotgani tufaylidir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, oliy ta’lim bilan qamrov esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. O’qituvchi va ustozlik kasbining obro’si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqda.

Pedagoglarning o’zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O’zbekistonda Butunjahon professional ta’lim sammitini o’tkazish taklif etildi. Ilg’or sog’liqni saqlash tizimini yaratish xususida so’z yuritir ekan, mamlakatimiz yetakchisi BMT bosh qarorgohida O’zbekiston tashabbusi bilan bolalar saratoni va boshqa og’ir kasalliklarga qarshi kurashga bag’ishlangan yuqori darajadagi tadbir o’tkazilishini aytdi.

Gender siyosatiga to’xtalib, davlatimiz rahbari mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tabdirkorlik sohasida xotin-qizlarning roli bundan buyon ham mustahkamlanishini ta’kidladi. Shu ma’noda, keng mintaqamiz miqyosida Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o’tkazib borish muhimligi qayd etildi.

Mamlakatimiz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qat’iy intilishini tasdiqlab, Prezident O’zbekiston 2030-yilga borib “daromadi o’rtadan yuqori” bo’lgan mamlakatlar qatoriga kirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygani ta’kidladi.

O’zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor yo’nalishlarga alohida e’tibor

qaratildi. Prezidentimiz shunday dedi: “Bundan 8 yil muqaddam biz ushbu yuksak minbardan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo’shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilganimizni e’lon qilgan edik. Bugun chuqur mamnuniyat bilan ta’kidlash mumkin: biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi”.

So’nggi yillarda mintaqamizda o’zaro savdo, investitsiyalar va transport tashuvlari hajmi besh barobargacha ko’paygani ta’kidlandi. Qo’shma investitsiya jamg’armalari, chegara hududlarida savdo va sanoat zonalarini tashkil etilmoqda, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integ-ratsiyani chuqurlashtirish yo’lida samarali mexanizimga aylandi.

— Shuni qat’iy ishonch bilan aytishim mumkinki, bugungi kunda Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni boshlandi. Mintaqamiz o’zining hamjihatligi, barqarorligi, o’ziga xosligi bilan xalqaro munosabatlar tizimida alohida subyekt sifatida tobora mustahkam o’rin egallamoqda, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari BMT tuzilmalari bilan mintaqada qator yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirishni, jumladan, ECOSOS va UNCTAD shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag’ishlangan xalqaro forumi o’tkazish, UNIDO bilan sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, “yashil” makon barpo etish hamda demografik barqarorlikka erishish bo’yicha dasturlarni qabul qilishni taklif qildi.

Bundan tashqari, Bosh Assambleyaning Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integ-ratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini qo’llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

Global va mintaqaviy xavfsizlik borasida fikr yuritir ekan, O’zbekiston Prezidenti Afg’onistondagi vaziyatga to’xtaldi. Afg’on xalqining tinch va osuda hayotga bo’lgan intilishini qo’llab-quvvatlash uchun xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirishga chaqirib, bu davlatning yakkalanib qolishiga yo’l qo’ymaslik o’ta muhimligini alohida ta’kidladi.

O’zbekiston ushbu mamlakatda katta iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqchi ekan qayd etildi.

Prezidentimiz Afg’oniston orqali xalqaro transport va energetika koridorlarini rivojlantirish bo’yicha BMTning alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi.

G’azo sektoridagi tobora yomonlashib borayotgan gumanitar inqiroz haqida gapirir ekan, Prezidentimiz harbiy harakatlarni to’xtatish va siyosiy muzokaralarni davom ettirishga chaqirdi.

— Biz BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, “ikki xalq uchun — ikki davlat” tamoyilini amalga oshirishning qat’iy tarafdorimiz, — dedi u yuksak minbardan turib.

Ukraina atrofidagi vaziyat ham barchamizni jiddiy tashvishga solayotganini qayd etib, Prezidentimiz bu muammoni diplomatik yo’llar bilan hal etish bo’yicha yuqori darajadagi muloqotlar boshlanganini olqishladi.

Xavfsizlik mavzusi davomida davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda Global aksilterror strategiyasini bajarish bo’yicha samarali ishlarni qayd etdi. BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tuzilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo’yicha Mintaqaviy Kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etildi. Markaz muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo’yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo’lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini

O’zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyorligini bildirdi.

Mamlakatimiz yetakchisi bugungi tahdidlarga to’la dunyoda global transport tizimining zaifligi dengizga chiqish imkoniyati bo’lmagan rivojlanayotgan davlatlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko’rsatayotganini ko’rsatib o’tdi.

Xalqaro tranzit koridorlarining xavfsizligini ta’minlash va samarali logistika zanjirlarini yaratish maqsadida “Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun o’zaro transport bog’liqligini mustahkamlash” global mexanizmini joriy etishga chaqirdi.

O’zbekiston Prezidenti tobora o’tkir tus olayotgan iqlim o’zgarishi muammolariga ham alohida to’xtaldi. Qayd etilganidek, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari jahon hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo’lishi lozim.

— Biz Orolbo’yi ekotizimini qayta tiklash bo’yicha ishlarni izchil davom ettirypmiz. So’nggi yillarda dengizning qurigan tubida 2 million gektar maydonda sho’rga chidamli cho’l o’simliklari ekildi. 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foiz qismida yashil qoplamalar hosil qilinadi, — dedi davlat rahbari.

Suv resurslarining taqchilligi muammosiga to’xtalar ekan, Prezidentimiz O’zbekistonda Suvni tejash bo’yicha butunjahon forumini o’tkazish rejalashtirilganini ta’kidladi. Mazkur anjuman yakkalanib bo’yicha suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash va bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun alohida “yo’l xaritasi”ni qabul qilish mo’ljallanmoqda.

Ekologik o’zgarishlarning yana bir salbiy ko’rinishi — iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganidir. Prezidentimiz ushbu yo’nalishda aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza hanuzgacha yaratilmaganini qayd etdi. Shu munosabat bilan bu jiddiy masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo’yicha Global pakt qabul qilishga chaqirdi.

O’zbekiston va BMT sherikligida misli ko’rilmagan yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. 160 dan ortiq dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Oktyabr oyida besh yilga mo’ljallangan yangi Hamkorlik dasturi imzolanihi kutilmoqda.

Keyingi yillarda O’zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi. O’zbekiston ECOSOS, Inson huquqlari bo’yicha qo’mita, Statistika komissiyasi kabi nufuzli tuzilmalarga a’zo etib saylandi.

O’zbekiston tashabbusi bilan ertaga BMT bosh qarorgohida bolalar saratoni va boshqa og’ir kasalliklarga qarshi kurashish bo’yicha yuqori darajadagi forum bo’lib o’tadi. Samarqand shahrida UNESCOning 43-Bosh konferensiyasiga qizg’in tayyorgarlik ko’rilmoqda.

Antoniu Guterrish O’zbekiston Prezidentining Bosh Assambleyaning yubiley sessiyasidagi nutqiga yuksak baho berib, uning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt, yoshlar, ma’rifatparvar islom dini va boshqa sohalarda global hamkorlikni ilgari surish borasidagi tashabbuslari muhimligini alohida ta’kidladi.

Shubhat chog’ida dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ustuvor yo’nalishlarda keng ko’lamli sheriklikni rivojlantirish, hamkorlikning yangi dastur va loyihalarini ishlab chiqishga kelishib olindi.

Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn bilan uchrashuvda joriy yil avgust oyida O’zbekiston Respublikasiga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif davomida erishilgan kelishuvlar ijrosi muhokama qilindi.

O’zbekiston va Iordaniyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo’yicha o’zaro muvofiqlashgan chora-tadbirlar ko’rishga alohida e’tibor qaratildi.

Chexiya Respublikasi Prezidenti Petr Pavel bilan uchrashuvda savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko’rib chiqildi. Savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, qishloq xo’jaligi va boshqa ustuvor yo’nalishlarda kooperatsiyani rivojlantirish bo’yicha aniq loyihalar muhokama qilindi.

Ildoralar aloqalarni faol davom ettirishga kelishib olindi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo’shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O’Z A



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Bundan oʻn yil oldin BMT tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlari haqida muhim hujjat qabul qilingan va u asosida 2030-yilgacha global miqyosda kambagʻallikka barham berish ushbu maqsadlarning birinchisi sifatida belgilangan edi. Bu kabi ezgu ishlarda xalqaro hamjamiyat eʼtiborini qozonayotgan, ayniqsa, barcha islohotlarni “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davom ettirayotgan Oʻzbekiston ayni masalada birinchilardan boʻlib oʻz nuqtayi nazarini belgilab olgani, Prezidentimizning yurtimizda kambagʻallik borligini eʼtirof etgani holda, ushbu masalaga jiddiy eʼtibor qaratayotgani ham barchaga maʼlum.



Ziyoviddin MANSUR,
Yuzovchilar uyushmasi Namangan viloyati boʻlimi rahbari,
xalq deputatlari viloyat kengashi deputati,
“El-yurt hurmati” ordeni sohibi


Muhimi, mamlakatimizda bu boradagi yangi tashabbus va tajribalar sinovdan oʻtkazilib, dunyodagi ijobiy yutuqlar oʻrganilgan holda, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha yangi Oʻzbekiston modeli yaratildi. Namanganda “Kambagʻallikdan farovonlik sari” mavzusida oʻtkazilgan xalqaro forum bu boradagi tajriba va amaliyotni namoyon etishda oʻziga xos platforma vazifasini oʻtadi.

Hozir insoniyat oqibatini oldindan aytib boʻlmaydigan oʻta keskin va murakkab davri boshdan kechirayotgan, dunyoda geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik tobora ortib borayotgan, Yer yuzida ogʻir iqlim oʻzgarishlari, suv tanqisligi va pandemiyalar tufayli insoniyat oldida mashbaqqatli sinovlar paydo boʻlayotgan bir paytda yangi Oʻzbekistonda kuzatilayotgan olamshumul oʻzgarishlar, ulkan bunyodkorliklar, eng eʼtiborlisi, barcha ezgu saʼy-harakatlar inson manfaatlariga qaratilayotgani va bu olibanob ishlar jahon hamjamiyatining yuksak eʼtirofiga sazovor boʻlayotgani butun mamlakat ahliga alohida gʻurur-iftixor bagʻishlaydi. Har qanday sinchok odam jahonda roʻy berayotgan turli mojarolar, ayrim davlatlar oʻrtasidagi qirgʻinbarot janglar, umuman, kutilmagan global oʻzgarishlar oqibatida 2015-yildan buyon global iqtisodiy oʻsish surʼati oʻrtacha 3 foizni tashkil etib, oldingi oʻn yillikka nisbatan sekinlashganini, buning oqibatida agar besh yil oldin dunyoda 650 million kishi kambagʻallikda yashagan boʻlsa, bugun ular soni 800 milliondan oshganini, bu kabi salbiy holatlar barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, umuman, dunyo hamjamiyati oldiga yangi va dolzarb vazifalarni koʻyib, ularga yechim topish boʻyicha tezkor qarorlar qabul qilinishi taqozo etayotganini ilgʻashi qiyin emas.

Mana shunday sharoitda yangi Oʻzbekiston har jabhada tinimsiz oʻzgarishlarga yuz tutayotganini anglamaslik, his etmaslik yoki bu kabi ijobiy oʻzgarishlarga panja orasidan qarash gumrohlik, beqarqlik, noxolislikdan boshqa narsa emas, albatta. Oʻttizdan ortiq nufuzli tashkilot va ikki yuzga yaqin xalqaro ekspert qatnashgan xalqaro forum ishtirokchilari davlatimiz rahbarini qizgʻin kutib olgani, kun tartibidagi masala yuzasidan nutqini guldoros qarsaklar bilan olqishlagani, ilgari surgan taklif va tashabbuslarini muzokaralarida samimiyat bilan maʼqullagani, ayrim muammolarga birgalikda yechim topishga daʼvat qiluvchi gʻoyalarga xayrixohlik bilan qoʻshilgani anjumanga qizgʻin ruh, koʻtarinki kayfiyat baxsh etdi.

Prezidentimiz maʼrzasida qayd etilganidek, mamlakatimizda soʻnggi sakkiz yilda fuqarolarning haq-huquqini himoya qilish, munosib ish joyi bilan taʼminlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ulkan ishlar bajarildi. Barcha saʼy-harakatlar har bir inson, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga oʻz salohiyatini toʻliq namoyon etishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni kengaytirishga qaratildi.

Shunday murakkab davrda kambagʻallikka qarshi kurash davlat siyosati darajasiga olib



KAMBAGʻALLIKNI QISQARTIRISH BOʻYICHA YANGI OʻZBEK MODELI

chiqilishi, umummilliy harakatga aylantirilishi, obrazli aytganda, jarlikda turib choʻqqini koʻzlashdek aqlbovar qilmaydigan holat edi. Ochiqchasiga tan olish kerak, oʻsha paytda bizda kambagʻallik darajasini baholash boʻyicha aniq mezon va metodologiya yoʻq edi. Mana shunday pallada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordam miqdori eng kam isteʼmol xarajatidan oz boʻlishi mumkin emasligi qatʼiy belgilab qoʻyilgani juda katta qonuniy asos boʻldi. Haqqoniy holatni yaqqolroq tasavvur qilish uchun quyidagi faktlarni eslash kifoya, nazarimda.

Ekspertlarning hisob-kitobiga koʻra, bu ishlar boshlanganda mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismi kambagʻallik chegarasida yashardi. Izcil islohotlar tufayli 7,5 million kishi kambagʻallikdan chiqarilib, kambagʻallik darajasi 2024-yilda 8,9 foizga tushirildi. Yil yakunigacha uni 6 foizgacha kamaytirish reja qilingani nihoyatda olibanob maqsaddir.

Albatta, qisqa muddatda bunday natijaga erishish oʻz-oʻzidan boʻlgani yoʻq. Oʻtgan davrda iqtisodiyotimiz 2 barobar oʻsgani, yil yakuni bilan aholi jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetishi hazilakam ish emas.

Mamlakatimizda yangi tashabbus va tajribalar sinovdan oʻtkazilib, dunyodagi ijobiy yutuqlar oʻrganilib, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha yangi Oʻzbekiston modeli yaratildi. Avvalo, oʻtish davrining muhim instrumenti boʻlgan manzilli ijtimoiy daftarlarni joriy etib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi.

Birgina misol: pandemiya davrida 800 ming oilaga bepul dori-darmon, 255 ming oilaga oziq-ovqat mahsulotlari, yana 1 million 200 ming oilaga ijtimoiy nafaga berildi.

Oʻtish davrining ogʻir qiyinchiliklarini boshdan kechirgan xalqimiz yaxshi biladi: paxta xomashyosidan boshqa boyligi yoʻq, uni ham arzongarov sotib, oʻziga gʻoya qozayotgan va koʻrakdan boshqa “boylik” qolmagani millat, ochiqcha aytganda, suvtekin mardikor edi. Oʻzida yetishtiriladigan sakkiz turli oziq-ovqat mahsulotidan tortib, kafanlikkacha navbatda turib olish holatidagi odamlar uchun qanday ogʻir boʻlmasin, izlanib, imkon topib, ijtimoiy maqsadlar uchun davlat tomonidan 8 milliard dollarlik mablagʻ va imtiyozlar

yangi mexanizmi joriy qilindi. Bu qishloq aholisi hayotida hech kutilmagan inqilobiy oʻzgarishga asos boʻldi, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz. Zero, shu kabi ulugʻvor ishlar qariyb 1 million odamning daromadini oshirishda muhim qadam vazifasini oʻtadi.

Eng muhimi, yuqoridagi omillar asosida aholini kambagʻallikdan chiqarish va daromadli qilishda har bir hududning muayyan tajribasi yangiligʻ mehnatsevar Namangan aholining ham oʻz tajribasi paydo boʻldi. Bu kabi dadil va izchil harakatlar haqidagi gaplarni tinglab oʻtirganlar hali muhokamalar boshlanmay turib muzokaraga kirishgani, aytilganlar xayolda emas, hayotda boʻlganini roʻparaga qoʻyilgan ekrandagi faktlar, raqamlar va mamlakat hayotiga oid roliklardan ilgʻab, qalban his etish boshlaganini — hayratga tushayotganini ilgʻash qiyin emasdi. Shu maʼnoda, xalqaro forumning Namanganda oʻtkazilganida yetarlicha asos bor.

Prezidentimizning barcha sohalar kabi biznesga, barcha viloyatlar qatori Namanganda alohida eʼtibori, kichik biznes, hunarmandchilik, zamonaviy sanoat zonalarini rivojlantirish boʻyicha koʻrsatgan yoʻl-yoʻriqlari asosida izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan yangilanishlar, oʻziga xos namuna, tajriba maktabi yaratilgani ehtiyojmand qatlamning kambagʻallik botqogʻidan chiqishga mustahkam zamin boʻldi. Bu gaplar aytishga oson, biroq atigi yetti-sakkiz yil avval tong otmay dalaga ketib, qorongʻida ham uyda boʻlmagan namanganliklarning bu darajaga erishishiga asos boʻlgan tutumlar, tafakkur va imkoniyatlar avvalgisidan yer bilan osmoncha, biyobon bilan boʻstoncha, tomchi bilan ummoncha farq qilgan, desam ishonavering.

Bir soʻz bilan aytganda, har bir mahallaga biznes muhiti, har bir oilaga farovonlik kirib kelganini butun mamlakat ahli qatori namanganliklar ham oʻz hayotida, tobora yuksalib borayotgan turmush sharoitida yaqqol his etmoqda. Buni kundan kun chiroq oychayotgan viloyatimizning koʻrku tarovati, odamlarning gullari yangiligʻ gulgun chehrasiyu, yoniq koʻzlaridan ilgʻash qiyin emas. Bunday keng koʻlamli saʼy-harakatlar hisobiga Oʻzbekiston 2030-yilga qadar kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishiga hech qanday shak-shubha yoʻq.

Chunki bu ezgu maqsadga erishish uchun yettita ustuvor yoʻnalishni qamrab olgan

“Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi ishlab chiqilgan, undagi vazifalar ijrosi har qanday kishi qalbidagi ishonch uygʻotishi tabiiy. Xoʻsh, bular nimalardan iborat?

Birinchidan, davlatning pirovard maqsadi kambagʻal aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish oʻrinlarini koʻpaytirib, odamlarning barqaror daromad manbaiga ega boʻlishi uchun sharoit yaratishdir.

Prezidentimiz maʼrzasida qayd etilganidek, davlatimizning faol investitsiya siyosati tufayli shu yilning oʻzida 35 milliard dollar samoya evaziga 9000 dan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish oʻrni ochilmoqda.

Qulay ishlabrmonlik muhiti hisobiga oʻtgan sakkiz yilda 700 ming tadbirkor barqaror biznesini ochdi. Eʼtiborlisi shundaki, davlat biznesga sharoit yaratib beryapti, tadbirkorlar esa oʻziga ijtimoiy masʼuliyat olib, ehtiyojmand aholini ishli va daromadli qilishda koʻmakchi boʻlmoqda. Mana shunday samarali hamkorlik tufayli shu yilning oʻzida 270 mingdan ziyod kambagʻal oila aʼzosi doimiy ishli boʻldi.

Keyingi yetti-sakkiz yilda hozirgi texnologiyalar asri taqozosiga koʻra, axborot texnologiyalari, sunʼiy intellekt, fintex kabi odamlarga yuqori daromad keltiradigan sohalarida startaplar ekotizimini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Yil boshidan buyon startaplarga 270 million dollar yoki oʻtgan yilga nisbatan 4 barobar koʻp xorijiy investitsiya kiritildi. Bu yoʻnalishdagi ishlarni yanada kuchaytirib, birgina Jahon banki hamkorligida qiymati 100 million dollarlik yangi loyihalar boshlangani samaradorlikning ishonchli asosidir.

Mamlakatimizda kambagʻallikni qisqartirish, aholi daromadini koʻpaytirish boʻyicha xalqaro tashkilotlar va nufuzli moliya institutlari bilan faol ish olib borilyapti. Bu borada Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda qishloqlarda yashash sharoitini yaxshilash, yoʻl qurilishi, tibbiyot va taʼlim xizmatlarini kengaytirish boʻyicha amalga oshirilayotgan 5 milliard dollarlik loyihalar alohida ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, Prezidentimiz taʼkidlaganidek, odamlarning bilimini oshirmay, ularni kambagʻallik girdobidan chiqarish imkonsiz. Shu bois, sifatlari taʼlim asosida inson kapitalini rivojlantirish uzoq muddatli istiqbolda kambagʻallikni qisqartirishning asosiy drayveri boʻlib qoladi.

Birgina misol: bolalarimizning bogʻchalardagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 million ayol taʼlim olish, kasb-hunar oʻrganish va daromad topish imkoniga ega boʻldi. Bu ishlar davom ettirilib, kambagʻal oilalar farzandlarini maktabgacha taʼlimga toʻliq qamrab olish uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Bunday oilalar farzandlari uchun xorijiy til va kasb-hunar oʻrganishga ketadigan xarajatlarning 80 foizi qoplab berilyapti. Bu orqali 100 ming kambagʻal oila farzandlari qamrab olinmoqda.

Har bir kambagʻal oilada kamida 1 nafar oliy maʼlumotli yigit yoki qiz boʻlishi uchun imtiyozli taʼlim krediti va davlat grantlari koʻpaytirilishi ham kambagʻallikning oldini

olishda eng samarali yechimlardan biri boʻlishi shubhasiz.

Soʻnggi besh yilda 800 mingdan ziyod kishi zamonaviy kasb-hunarlariga oʻrgatilib, yuqori daromadli ishlarga joylashtirildi. Kelgusida bu amaliyotni yanada kengaytirish reja qilinayotgani ham mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi islohotlar bardavomligidan dalolat. Jahon standartlari asosida Kasbga tayyorlash xalqaro markazlari tashkil etilib, bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar berish yoʻlga qoʻyildi.

Uchinchidan, xotin-qizlarni jamiyatning faol aʼzosiqa aylantirish masalasi ham davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Mamlakatimizda xotin-qizlarga oliygohda oʻqishi uchun foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul taʼlim olish tizimi joriy etildi. Bugun talabalarining 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, shu yilning oʻzida 1 million 700 ming ayol ishli boʻlgani quvonarlidir.

Bu ishlar davom ettirilib, “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming qiz axborot texnologiyalari, fintex va sunʼiy intellektga oʻqitilishi jahon miqyosida ommalashtirishga arizigʻul namuna.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi barcha boʻgʻinda oʻz oʻrnini topishiga koʻmaklashish davlatimizning doimiy eʼtiborida ekan, shu yilning oʻzida ayollar tadbirkorligini koʻllab-quvvatlash uchun 1,5 milliard dollar ajratilgani, ushbu mablagʻ yanada koʻpaytirilib, kelgusi yili yana 2 million ayol doimiy daromadli boʻlishi uchun sharoit yaratish koʻzda tutilayotgani, kelgusi yildan mehnat bozorida ayollar uchun teng sharoit yaratish maqsadida ijtimoiy sugʻurta tizimi qamrovi keskin oshirilishi oilalarning kambagʻallikka tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Toʻrtinchidan, inson salomatligini muhofaza qilmay turib, imkoniyatlarini toʻlaqonli roʻyobga chiqarib boʻlmaydi. Bu borada Prezidentimiz eʼtiroficha, 140 ming kambagʻal oilaga shifokor birlashtirilgan, ularni yiliga bir marta doimiy koʻrikdan oʻtkazish yoʻlga qoʻyiladi. Endi kafolatlangan tibbiy xizmatlar koʻpaytirilib, kambagʻal oilalarning bunga sarf qiladigan xarajati 2 karra qisqartiriladi. Bunda ularga bepul dori va kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi taqdim etiladi.

Beshinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash — kambagʻallikka qarshi kurashda asosiy yoʻnalishlardan biri. Bu tizim tubdan isloh qilinib, ilgari 6 ta davlat tashkilotida boʻlgan vakolatlar yangi va toʻla ijtimoiy himoya milliy agentligiga berildi.

Qisqa muddatda har bir tuman va shaharda 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlarni “bir darcha” tamoyili asosida koʻrsatadigan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil qilingani, har bir mahallada ijtimoiy xodim aholi bilan proaktiv usulda ishlayotgani bu ezgu ish qamrovi va samaradorligidan dalolat.

Shu yilning oʻzida mazkur xizmat samarasi oʻlaroq 2 million 700 mingga kishiga ijtimoiy xizmat va yordamlar koʻrsatildi. Ayniqsa, kambagʻal oilalarning parvarishiga muhtoj aʼzolariga yangi ijtimoiy xizmatlar yoʻlga qoʻyildi. Bu esa mehnatga layoqatli 50 ming

kishining ishlashi uchun imkon yaratdi. Jahon banki bilan ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish maqsadida 100 million dollarlik loyiha boshlangani esa bu ishning keyingi koʻlamiga yaqqol ishoradir.

Imkoniyati cheklangan aholining kambagʻallikka tushib qolish ehtimoli yuqori. Shu bois, ularni qoʻllab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish boʻyicha mamlakatimiz miqyosida yangi yondashuvlar ishlab chiqildi.

Munosib mehnat sharoiti yaratilgani uchun bu yil nogironligi bor 150 ming shaxs ishga joylashdi. Ularga hayotiy zarur tibbiy jihozlar va protezlar bepul yetkazib berilmoqda.

Bundan tashqari, imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy taʼlim bilan qamrab olish uchun alohida dasturlar amalga oshirilayotgani, ogʻir vaziyatga tushib qolgan bolalarga gʻamxoʻrlilik qilish va ularni zoʻravonlikning har qanday koʻrinishidan himoya qilish borasida yangi tajriba yaratilgani ham insonparvarlikning oliy namunasidir.

Oltinchidan, hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yaxshi yashash uchun qulay sharoitlar yaratish koʻp oʻlchovli kambagʻallikni qisqartirishda muhim qadam boʻladi.

Shu maqsadda qariyb 3,5 million kishi yashaydigan, sharoiti ogʻir 1000 ta mahallada infratuzilma yaratish borasidagi ishlar natijasida shu yilning oʻzida 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv bordi, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi taʼminoti yaxshilandi.

Kelgusi yili mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish oʻrinlarini koʻpaytirish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga yana 400 million dollar ajratilishi koʻzda tutilgan. Bunda 32 ta tuman va ijtimoiy sharoiti ogʻir 328 ta mahallani rivojlantirish boʻyicha alohida dastur qabul qilindi. Bu ogʻir sharoitli hududlarni zamon talablari asosida rivojlantirish, aholiga



munosib turmush sharoiti yaratish borasida yangi tajriba boʻladi.

Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya, yoʻl, maktab va bogʻcha qurish boʻyicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirildi. Uy-yojoya muhtoj va daromadli past aholiga ipoteka tizimidan foydalanish uchun har yili 200 million dollar subsidiya ajratiladi.

Yettinchidan, mamlakatimizda davlat xarajatining 70 foizdan ortigʻi aynan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun sarflanmoqda.

Shu bilan birga, Prezidentimiz maʼrzada taʼkidlaganidek, global miqyosda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun rivojlanayotgan davlatlarga yiliga 4 trillon dollardan ziyod mablagʻ zarur. Bunday sharoitda xavf-xatarlarni obyektiv baholash, moliyaviy resurslarni jalb qilish, samaradorligini oshirish boʻyicha “kambagʻallikka qarshi kurashning yangi moliyaviy arxitekturasiga” ehtiyoj sezilmoqda.

Ushbu masalalarga yechim topish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2026-yilda koʻhna Xiva shahrida xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar va hamkor davlatlar ishtirokida konferensiya oʻtkazish taklifi qilingani hamkor davlatlar birgalikdagi faoliyatining keyingi rivojlanish istiqboli uchun ayni muddao boʻldi.

Umuman olganda, Namanganda oʻtgan navbatdagi xalqaro forum oʻz mohiyat-eʼtibori bilan farovonlik dasturi sifatida Konstitutsiyamizda belgilab qoʻyilgan ijtimoiy davlat prinsipining amaldagi isbotidir, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz.



2025-yil
24-sentabr, 197-son

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON



Taraqqiyot odimlari



OLMALIQ YURT FAXRIGA,

SANOAT SHAHRIGA AYLANMOQDA

Olmaliq... Bu shunchaki geografik nuqta emas. Bu nomni eshitgan kishi qalbining bir chekkasida g‘ururni, faxr va ishonchni his qiladi. Bu joy zahmatning, sabrning va tinimsiz yangilanishning manzildir. Kimdir bu shaharni konlari, mis fabrikalari bilan eslaydi. Boshqa birov esa uni futbol akademiyasi, yoshlar bog‘i, yangi ta’lim maskanlari orqali, yana kimdir tabiati bilan taniydi. Biroq bu shaharni haqiqiy ma’noda anglash uchun u yerga bir bor bo‘lsa-da borish, odamlari bilan suhbat qurish, ularning yuzidagi mehnatsevarlik va ertangi kunga ishonchni ko‘rish kerak. Ana shundagina Olmaliqning haqiqiy qiyofasini anglash, his qilish mumkin.

Bir paytlar sukunatga cho‘mgan adirlar o‘mi bugun sanoat yuragiga aylandi. Mazkur yerlarda endi faqat texnika tovushi emas, balki orzular jarangi, yuksak maqsadlar shovqini eshitiladi. O‘zgarishlar ko‘chalarda emas, insonlarning fikrida, dunyoqarashi va ruhiyatida ro‘y bermog‘da.

Olmaliqqa xizmat safariga borganimizda yuqoridagi fikrlar miyamizda g‘ujg‘on urdi. Bu o‘rinda sizni shunchaki sanoat yoki tarix bilan emas, balki mahalliy aholining o‘zini anglashi va kelajak sari dadil qadamlari haqida so‘z yuritamiz.

Ulug‘ loyihalar boshlangan manzil

Birinci manziliimiz “Qalmoqqir” va “Yoshlik-1” konlari bo‘ldi. Kon tomon yurar ekanimiz, uzoqdan haybatini ko‘z-ko‘z etib, shaharga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlab turgan zamonaviy, baland uylar diqqatimizni tortdi. Oldinlari bu yerlarda nari borsa, 4 qavatli uylar bo‘lgan. Endi esa biyday dashtda zamonaviy shahar qad rostlayotir. Bir vaqlar olmalikliklarning asosiy jamoat transporti



“Damas” bo‘lganini ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Hozir ular poytaxtdagidan qolishmaydigan zamonaviy avtobuslarda manziligacha oshiqmoqda. Ilonizi yo‘l bo‘ylab 500 metrgacha quyidan ma’dan olib chiqayotgan 130-240 tonna yuk ko‘taradigan gigant texnikalarni ko‘rib, hayratga tushmaslikning iloji yo‘q.

“Yer — boylikning onasi, mehnat esa uning otasi”, degan maqol bunday joylarda to‘la-to‘kis o‘z tasdig‘ini topadi. Chunki bu yerda faqat texnika emas, fidoyilik, sabr va sadoqat ham ishlayapti. Bu yerdagi har bir siqim tuproqda faqat ma’dan emas, balki kelajak, tinch va farovon hayot uchun ishonch mujassam.

Davlatimiz rahbarining 2017-yili Olmalik kon-metallurgiya kombinatiga tashrifida hudud aholisi uchun quvonchli voqeaga tamal toshi qo‘yildi. Shu kundan boshlab, “Qalmoqqir” konining g‘arbiy qismida “Yoshlik-1” konini o‘zlashtirishga start berildi.

Bir paytlar qup-quruq, inson borishdan cho‘chigan dasht bugun nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki butun Markaziy Osiyoda sanoatlashishning flagmaniga aylanib bormog‘da. Hozir uzunligi 4, eni 2 kilometrdan ziyod konda kunu tun ma’dan tashilmoqda. Bu faqat texnika ishi emas, balki inson irodasi, ijtimoiy mas’uliyat va davlat siyosatining zafarli odimidir.

Bugun qurilish va qazish ishlari 600 dan ortiq zamonaviy texnika ishtirok etmoqda. Ushbu misol loyihaaning naqadar ulkanligini ko‘rsatadi. Bu raqam shunchaki statistika emas,

tasavvur qilib bo‘lmaydigan mehnat, buyuk rejalar va vatanparvarlik in’ikosidir.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan kon-transport komplekslari, mikroprotessorli temir yo‘l tizimlari va boshqaruvning yangi shakllari joriy qilingan. Bu esa resurslar tejallishi va ish samaradorligining oshishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy texnikalar nafaqat sifat, balki tezkorlikni ham kafolatlaydi. Aytish joizki, 70 yil davomida “Qalmoqqir” konida 600 metr chuqurlikka yetib borilgan bo‘lsa, bor-yo‘g‘i 3 yilda “Yoshlik-1” konida 250 metr chuqurlikka tushilgan. Bu esa yangi zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv modellari orqali amalga oshirilmoqda.

Sanoat mo‘jizasi

Olmalik tog‘ bag‘rida qad rostlagan, tarixi bilan iftixor, buguni bilan faxr va kelajagi bilan ishonch bag‘ishlovchi shahar. Bu manzil nafaqat o‘zining tabiiy boyliklari bilan, balki mehnatkash insonlarining qahramonligi, intilishi va kurashuvchan ruhi bilan ham qadrlidir.

Bugungi dunyo shiddat bilan o‘zgarmoqda. Iqtisodiy raqobat, texnologiyalar yangilanishi



boshladi. Bugun bu yerlarda ulkan texnikalar va odamlar harakati, qurilish shovqini va ishlab chiqarishdagi shijoat — yaxlit jarayonni aks ettiradi.

Bu o‘zgarishning boshlanishida davlatimiz rahbarining qat’iyati muhim ahamiyat kasb etdi. 2021-yildagi tashrifda Prezidentimiz 3-mis boyitish fabrikasi qurilishiga start bergan edi. Maqsad aniq edi: mis mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish uchun uning mustahkam xomashyo bazasini yaratish zarur.

2025-yil avgustdan boshlab fabrika to‘liq faoliyat boshladi. Ikki seksiya bir vaqtning o‘zida sinovdan o‘tkazildi. Shu davrda 3700 tonnadan ziyod mis konsentratini ishlab chiqarilib, mis eritish zavodiga yetkazildi. Bu oddiy natija emas, balki yuzlab muhandis va mutaxassislarning, minglab ishchilarning kechayu kunduz tinimsiz mehnati samarasidir.

— Fabrikadagi texnologik jarayon yaxlit zanjir asosida tashkil etilgan. Konda tashib keltirilgan ma’dan avval yirik maydalashdan o‘tkaziladi, 1200 milligrammgacha bo‘lgan bo‘laklar 300-350 milligrammgacha maydalanadi. Keyingi bosqichlarda ma’dan elaklanib, o‘rta va kichik maydalash sexlariga yo‘naltiriladi. Soatiga 6,5 ming tonna ma’dani maydalash quvvatiga ega uzellar va 4,2 kilometr uzunlikdagi konveyerlar ma’dan yetkazib berish jarayonini uzluksiz ta’minlaydi, — deydi 3-mis boyitish fabrikasi direktorining ishlab chiqarish bo‘yicha o‘rinbosari Sherzod Mirsiddiqov. — Yanchishi jarayoni fabrika faoliyatining asosiy halqasidir. Sharli tegirmonlar yordamida ma’danning 80 foizi 74 mikrongacha maydalanadi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy sensorlar ish jarayonini real vaqtda kuzatib, operatorlarga tezkor ma’lumot taqdim etadi. Shuningdek, markazdan qochma “Falcon” konsentratlari oltin va boshqa qimmatbaho metallarni aniqlik bilan ajratib olish imkonini beradi.

Flotatsiya bo‘limi esa fabrikaning yuragi hisoblanadi. Bu yerda zamonaviy flotomashinalar joylashtirilgan. Hajmi 300 metr kub bo‘lgan 54 ta, shuningdek, 50 metr kubli 60 ta va 20 metr kubli 48 ta mashina hamda 6 ta vertikal tegirmon yaxlit tizim sifatida ishlaydi. Jarayon ikki bosqichda amalga

oshiriladi. Avtomatik reagent dozlash tizimlari samaradorlikni ta’minlaydi. Sun’iy intellekt asosidagi nazorat vositalari ko‘pik qatlamini kuzatib, flotatsiya jarayonini optimallashtiradi.

Fabrikaning yuragi sanalmish tegirmonlar uchastkasida ma’dan mayda zarralarga yetib borunicha ishlovdan o‘tadi. Zamonaviy sharli tegirmonlar, konsentratlar va sensor texnologiyalari bilan jihozlangan tizimlar har bir gramm ma’danni aniqlik bilan ajratib olish imkonini beradi. Bu oddiy sanoat emas, ilm va texnika uyg‘unligidagi murakkab jarayondir.

Flotatsiya uchastkasi esa jarayonning hal qiluvchi qismi. Bu yerda mis va molibden ajratib olinadi. Zamonaviy flotomashinalar va vertikal tegirmonlar ish samaradorligi bilan birga resurs tejankorligini ham ta’minlaydi.

Keyingi bosqichda mahsulot saralanadi, filtrlanadi va quyultiriladi. 28 metrl qayultirgichlar va “Larox” filtrlari orqali tayyor mahsulot 4 kilometr uzunlikdagi quvvurli konveyer orqali metallurgiya korxonasiga yetkaziladi. Bundagi butun jarayon avtomatlashtirilgan bo‘lib, sun’iy intellekt orqali boshqariladi. Qat’iy ishonch bilan bu fabrika yangi O‘zbekiston sanoatining yuzi, salohiyati va kelajagi ekanini aytish mumkin.

Eng muhimi, bu ishlab chiqarishda inson qo‘li va aqli hali ham markazda turadi. Sensorlar, algoritmlar va avtomatika — bularning barchasi mutaxassislarning doimiy nazoratida. Tegirmon mashinistlari, elektrklar, flotatorlar va texnik xizmat xodimlari — har biri o‘z kasbi bilan bugungi taraqqiyot pog‘onasini barpo etmoqda.

Bu yerda faqat ishlab chiqarish emas, balki orzu-umidlari, intilishlar va katta mehnat samarasi ham mujassam. Jarayondagi har bir uskuna, har bir tonna mahsulot — yurt kelajagiga ishonch ramzi.

Albatta, bugun dunyoda raqobat juda kuchli. Kim ortda qolsa, inqirozga yuz tutadi. Shu bois, O‘zbekiston ana shunday ulkan qadamlari orqali nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham o‘z o‘rnini topishga intilmoqda. Olmalik bu intilish timsolidir.

Shahardagi har bir o‘zgarish, har bir nayiha nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyat, balki ma’lumiyo ko‘tarinkilik, xalq farovonligi va ertangi kunga ishonch ramzidir.

E’tiborimizni yana bir jihat tortdi. Adirlik bag‘rida joylashgan fabrika atrofida daraxtlar va gullar ekilgan. Bu yerga kelgan odam nafaqat sanoat sirlaridan, balki bugun respublikamiz bo‘yicha dolzarb masala bo‘lgan “Yashil makon” loyihasining ham guvohi bo‘ladi. Tabiat va sanoat birlashgan joyda odamlarning bugundan rozi, ertaga umid bilan yashayotganini ko‘rish mumkin.

“Aqli” konlar

Kombinat korxonalaridagi keng qamrovli raqamlashtirish ishlari natijasida yuqori mehnat unumdorligiga erishilmoqda. Jumladan, ayni kunlarda raqamlashtirish doirasida Olmalik kon-metallurgiya kombinatida kon-transport majmuasini boshqarishning keng qamrovli avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish ishlari yakunlanish arafasida.

Avtomatlashtirilgan kon-transport boshqaruv tizimi O‘zbekistonda shu sohada

yo‘nalishlarini avtomatik belgilash uchun bort tizimlari bilan jihozlangan.

Shuningdek, konda yuklanadigan kon massasini tezkor hisobga olish tizimi joriy etildi. Bu yechim texnikaning to‘xtab turish vaqtini va sabablarini ko‘rsatgan holda avtomatik hisobga olish, samovallari kuzovida tashilayotgan yuk og‘irligini avtomatik aniqlash, shuningdek, shinalardagi yonilg‘i va bosim nazoratini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, tog‘-kon sanoati sharoitida transport vositalaridan foydalanish xavfsizligini oshirish, shuningdek, haydovchi yoki operatorni diqqatni yo‘qotish va uxlab qolish holatlari haqida ogohlantirish uchun mo‘ljallangan nazorat tizimi joriy etildi.

Tizim, shuningdek, yuklab jo‘natilayotgan ma’dan sifatini boshqarish va zarur hisobotlarni shakllantirish imkonini beradi. Burg‘ilash dastgohlarini datchiklar bilan jihozlash esa haqiqiy burg‘ilangan quduqlar va ularning texnologik parametrlari bo‘yicha aniq ma’lumotlarni olish, to‘xtab turish vaqti va burg‘ilash uskunalarini sarfini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, intellektual karyer ekskavatorlarning ish samaradorligini o‘rtacha 10 foiz, o‘rtacha tezligini 5 foiz va yuklanishini 20 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Ushbu loyiha nafaqat mintaqadagi eng yirik mis ishlab chiqaruvchi sifatida Olmalik kon-metallurgiya kombinatining yetakchilik mavqeiini mustahkamlaydi, balki O‘zbekistonning butun tog‘-kon sanoatini raqamli transformatsiya qilish uchun yangi standartni belgilaydi.

Olmaliqda yangi nafas

Olmalik shahridagi hashamdor bino e’tiborimizni tortdi. Avvaliga bu kattaroq korxona bo‘lsa kerak deb o‘yladi. Lekin ichkariga kirib ko‘rgach, bu 210 o‘ringa mo‘ljallangan futbol akademiyasi ekanini bildirdi.

Shu o‘rinda kichik mulohaza. Bu yil tarixda ilk bor futbolchilarimiz jahon chempionatiga yo‘llanma oldi. Osiyo chempionatida ham yoshlarimiz bir necha bor g‘alabani qo‘lga kiritdi. Hatto ba’zilar dunyoning eng kuchli futbol ligalarida maydonga tushmoqda. Bu yoshlar nafaqat o‘zi uchun, balki yurtimiz nomi va sharafini yuksaltirish uchun ham katta fidoyilik ko‘rsatmoqda. Dunyo ham ana shunday iqtidorli yoshlar orqali O‘zbekistonni tanimoqda.

Endi o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: bu natijalar zamirida nima yotibdi? Menimcha, eng avvalo, e’tibor. Bugun Olmalik shahridagi kabi akademiyalar yurtimizdagi eng chekka hududlarda ham qurilayotir. Bu, shubhasiz, qanchalab iqtidorlilarni kashf etishga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, sport bilan



birinchi loyiha bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad ilg‘or raqamli texnologiyalar yordamida konlarda ishlash yondashuvini tubdan o‘zgartirishdan iborat.

Loyiha doirasida 400 dan ortiq texnika turli sensorlar bilan jihozlangan. Xususan, “Qalmoqqir” konidagi 186 ta va “Yoshlik-1” konidagi 240 ta ekskavator, avtosamosval, burg‘ilash quurmalari va boshqa yo‘l qurilishi texnikalari o‘z faoliyati haqidagi ma’lumotlarni “Karyer” avtomatlashtirilgan kon-transport boshqaruv axborot tizimiga avtomatik uzatishi mumkin.

— Tizim konlarda ishlarning bajarilishini 24/7 rejimida nazorat qilish, yukni avtomatik ag‘daruvchi yuk mashinalarining qatnovi soni va tashilgan tog‘ jinslarining hajmi haqidagi ishonchli ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish tezlik rejimi va ruxsat etilgan yuklanishni nazorat qilish orqali texnikaning ekspluatatsiya xarajati va yonilg‘i sarfini kamaytirish imkonini beradi, — deydi Olmalik kon-metallurgiya kombinati raqamlashtirish departamenti direktori Aziz Roziqulov.

“Karyer” avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining funksional imkoniyatlari o‘zi ag‘daruvchi yuk mashinalari, ekskavatorlar, burg‘ilash quurmalari va boshqa harakatlanuvchi obyektlarga o‘rnatilgan maxsus sensorlardan ma’lumot yig‘ishga asoslangan. Sensorlarning ko‘rsatkichlari, jumladan, kuzovning yuklanganlik darajasi, bakkadagi yonilg‘i miqdori, joylashuvi, tashilayotgan yukning og‘irligi va hatto burg‘ilash asboblarning yeyilish darajasini ham qamrab oladi.

Barcha ma’lumot simsiz kanal orqali serverga uzatiladi. Shundan so‘ng ushbu ma’lumotlar asosida analitik tizim keyinchalik tahlil qilish va tegishli qarorlar qabul qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan hisobotni tayyorlaydi.

“Aqli karyer” OKMKga transport logistikasini optimallashtirish imkonini beradi. O‘zi ag‘dargich va temir yo‘l tarkiblari harakat



shug‘ullanayotgan yoshlar bu muassasalarda xorijiy tillarni o‘rganish bilan birga keng dunyoqarashga ham ega bo‘lmoqda.

Olmaliqqa kelgan har bir kishi shaharning o‘ziga xos yangilanishlari, odamlarning turmush darajasi va dunyoqarashidagi o‘zgarishlarni kuzatib, hayratda qoladi. Yangi yo‘llar, qulay muhit va faol hayot shaharni yanada jonlantirmoqda.

Hozir eng qimmatli va qadrlil boylik iqtidorli, bilimli va salohiyatli kadrlardir. O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi, yangi zavod va fabrikalar faoliyati aynan salohiyatli inson resurslarini tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Safarimizni yakunlab uyga qaytar ekanimiz, xotiramda olmalikli Abdumajid otaning so‘zlari aylanardi:

— Bir vaqlar mis boyitish fabrikalarining birinchi va ikkinchi bosqichi ishlayotganida u yerda eski ikki “Jiguli” va bir “Moskvich” mashina bor edi. Hozir kombinatda ishlayotganlar zamonaviy avtomobillarda yuradi. Bu — oilalarning tinchligi va farovonligi belgisi. Yaqinda Olmalik kon-metallurgiya kombinati cho‘l-biyobon o‘rtasida Xiyobon va Yoshlar bog‘ini barpo etdi. Biz u yerga o‘zimiz havas bilan qaraymiz. Kombinat shahar taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Yangi qurilayotgan fabrikalar, ochilayotgan konlar — barchasi vatan, xalq va inson manfaati uchun xizmat qiladi. Bu shior bir kunlik emas, balki xalqimiz uchun umrbog‘i qadriyatidir. Tabiiy boyliklar yer ostida yotsa-da, ulardan xalq manfaati va tinchligi uchun foydalanish maqsadida jon kuydirib ishlash kerak. Davlatimiz rahbari aynan shunday ish boshladi va hozir biz havas bilan qarayotgan yoshlarga shunday imkoniyatlar yaratildi. Buni har qanday joyda baland ovoz bilan gapirish mumkin.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Mash'al SAIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Xitoy ta'limi jahonda eng ko'p muhokama qilinadigan va o'rganiladigan tizimlardan biri. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanishi va global ta'siri o'rtishi bilan bu mavzuga bot-bot e'tibor qaratilyapti.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



O'QITISHDA ILG'OR TAJRIBALARNI O'ZLASHTIRISH

NIMA UCHUN MUHIM?

Maktabgacha ta'lim tizimi 1985-yildagi ta'lim islohotida belgilangan tamoyillar asosida yo'lga ko'yilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat korxonalari, ishlab chiqarish guruhlari, hokimliklar, jamoalar va ijtimoiy guruhlarni o'talikka olishi kerak. Hukumat maktabgacha ta'limga homiylik qilish xususiy va turli davlat tashkilotlarining ijtimoiy xizmatlaridan biri ekanini e'lon qildi. Shuningdek, o'sha yilgi islohotda maktabgacha ta'limni pulli qilish va pedagog kadrlar tayyorlash mexanizmini kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Xitoylik bolalar odatda 3-6 yoshgacha bog'chaga qatnaydi. Tarbiyachilar, albatta, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi maqomiga ega bo'lishi lozim. Asosiy e'tibor bolaning o'yin o'yinashi yoki dam olishiga emas, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Olti yoshga to'lgan bolalar an'anaviy tarzda boshlang'ich maktabga yuboriladi. Boshlang'ich ta'lim mamlakatning barcha fuqarosi uchun majburiy. O'qish muddati — 6 yil. Standart o'quv yili ikki semestrda iborat bo'lib, sentyabrdan iyulgacha davom etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xitoy tili, matematika, jamiyatshunoslik, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, mafkura va axloq, musiqa, tasviriy san'at hamda mehnat kabi majburiy fanlarni o'rganadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida chet tillarni o'rganish bola va ota-onaga ixtiyoriy.

Mamlakatdagi o'rta ta'lim tizimi shartli ravishda ikki bosqichdan iborat: quyi (birinchi)

va yuqori (ikkinchi). Quyi bosqich 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan uch yillik o'qish uchun mo'ljallangan va majburiy ta'limning yakuniy bosqichidir. O'rta ta'limning birinchi bosqichida (3 yil) o'quvchilar kamida 13 ta asosiy fanni o'rganadi. O'quv yili oxirida yakuniy imtihonga kirish uchun barcha fandan kamida 60 ball to'plash shart. To'play olmagani keyingi yilga qoldiriladi.

Yuqori o'rta ta'lim darajasida (15-19 yosh) yoshlarga ta'limning 2 turi taklif etiladi: akademik yoki kasbiy. O'qitishning bu bosqichi pulli bo'lib, yillik o'rtacha narxi 4-6 ming yuan.

Bugun Xitoyda 2500 ga yaqin oliy o'quv yurti mavjud. Ularda 20 milliondan ortiq talaba, jumladan, chet elliklar tahsil oladi. An'anaga ko'ra, oliy ta'lim muassasalariga 18 va undan katta yoshdagi abituriyentlar qabul qilinadi. Dunyodagi boshqa oliy ta'lim tizimlari singari Xitoy universitetlari ham bakalavr, magistr va fan doktorlarini tayyorlaydi. Bakalavriat ta'lim dasturi 4 yil, magistratura 3 yil, doktorantura 3-5 yil davom etadi. Xitoy universitetlarida kirish imtihoni juda qattiq bo'lishi kelgusida yaxshi kadrlar yetishtirish, saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarish bilan izohlanadi. Ammo chet ellik talabalar uchun ba'zi yengilliklar mavjud. Mamlakat

ta'lim tizimining asosiy maqsadi talabalarni ilmiy baza bilan ta'minlash, kelajak kasbiga tayyorlash va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

Ushbu mamlakat ta'lim tizimining kuchli jihatlardan yana biri akademik mukammallikka urg'u berilishi va muvaffaqiyatli mutaxassislar tayyorlanishidir. O'g'il-qizlarga ta'limga mas'uliyat, tartibga rioya etish va birinchi bo'lishga intilish bolalikdan singdiriladi. Bu odat endi fazilatga, fazilat esa xarakterga aylanib, butun dunyo xitoy millatining qiyofasini mas'uliyat, tartib va g'alaba timsolida ko'ra boshladi.

Xitoy hukumati "fan va ta'lim orqali mamlakat taraqqiyotiga erishish" tamoyili hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga asoslanib, ta'limni modernizatsiyalash, aholining madaniyatini oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda. Ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun strategik ahamiyatga ega ekanini e'tiborga olinib, "Ta'limni rivojlantirish — modernizatsiyalashuv va kelajakni belgilab beruvchi omil" mazmunidagi yangi yo'nalish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmokda.

Mamlakat zamonaviy oliy ta'lim tizimi tarkibiga universitet, kollej va kasbiy oliy maktablar kiradi. Universitet va kollejlarning asosiy qismi Ta'lim vazirligi nazoratida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, mahalliy hokimliklar boshqaradigan oliy ta'lim muassasalari ham mavjud. Xitoy OTMLari oliy ta'limning uch bosqichini ta'minlaydi: bakalavriat, magistratura, doktorantura.

Xitoy oliy ta'limining sifati ko'p mamlakatlarda tan olingan. Shu sababli, bu yurtga almashinuv dasturlari bo'yicha chetdan juda ko'p talabalar boradi. Ko'plab oliy ta'lim muassasalari xorijlik talabalarni qabul qilish huquqiga ega. Oxirgi yillarda u yerdagi oliy ta'lim muassasalari soni nodavlat ta'lim muassasalari hisobiga 70 foiz o'sdi. Ta'limni rivojlantirish rejasiga binoan, barcha OTMLar har besh yilda ko'rsatiladigan xizmatlar



sifati baholash jarayonidan o'tishi shart. Bu ish maxsus tashkil etilgan Sifatni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati uchun mas'ul bo'linmalar ham mavjud. Bunday tizim Xitoyga o'qitish sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini berdi. Shundan kelib chiqib aytgach, davlatimiz rahbarining joriy yildagi ikkita farmoni O'zbekiston ta'lim tizimini ham yangi bosqichga olib chiqishiga shubha yo'q.

Shulardan biri Prezidentimizning 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifati ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonidir. Unga ko'ra, "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi negizida Ta'lim sifati ta'minlash milliy agentligi tashkil etildi. Agentlik o'rta maxsus,

kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish, malakani baholash sohasida tashqi sifat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organidir.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham o'qitish tizimidagi islohotlarda muhim o'rinni tutadi. Chunki mazkur hujjat asosida pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazildi. Shu yo'nalishdagi oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajriba asosida o'quv jarayonlarini samarali boshqarish tizimi joriy etildi. Samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) asosida rahbar xodimlar faoliyatini baholash tizimini ishlab chiqish hamda oliy pedagogik ta'lim mazmunini xalqaro talablarga moslashtirish kabi vazifalar belgilandi.

Qolaversa, xalqaro ta'lim dasturlari ko'lanadigan yo'nalishlar uchun professor-o'qituvchilarni xorijiy universitetlarga maqsadli malaka oshirishga yuborish tizimi joriy etildi. Demak, Prezidentimiz farmonlari Xitoy kasbiy ta'lim tizimidagi kabi katta o'zgarishlarga olib keladi. So'nggi yarim asrda Xitoy savodxonlik darajasi bo'yicha qolqoq mamlaktdan samarali o'rta va oliy ta'lim tizimiga ega mamlakatga aylandi. U iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur kadrlar tayyorlash borasida yetarli sharoit yaratadi. Xitoyning bu boradagi yutuqlarini chet eldan ta'lim olish maqsadida kelayotganlar yildan yilga ko'payib borayotgani ham tasdiqlaydi. Ayni paytda Xitoy Yaponiya bilan bir qatorda Janubi-sharqiy Osiyoda xorijiy talabalar oqimi bo'yicha yetakchi o'rinni egallab turibdi. Xitoy oliy ta'limi taraqqiyoti uning global ta'lim makoniga integratsiyalashuvi bilan bog'liq.

Ushbu mamlakat ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati va afzalligi, eng avvalo, qat'iy intizom va mehnatsevarlikda. O'quvchilardan qat'iy intizomga rioya etish va tinimsiz mehnat talab qilinadi. Bu yosh avlodning maqsadga erishish yo'lida sabr-toqatli bo'lishi va o'z

ustida muntazam ishlashiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, har bir bosqich bilim va ko'nikmani oshirishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi.

Uchinchidan, fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) fanlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu mamlakatning innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Xitoyda o'qituvchi juda obro'li va mas'uliyatli kasb egasi. Pedagoglar muntazam malaka oshirib, jarayonga yangi texnologiyalarni joriy etib boradi.

Beshinchidan, hukumat ta'limga

katta investitsiya kiritmoqda. Zamonaviy maktablar, laboratoriyalar va kutubxonalarda o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

O'zbekiston Xitoy tajribasini o'rganish

orqali qator maqsadlarni ko'zlamokda.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini

xalqaro standartlarga moslashtirish,

STEM fanlarini rivojlantirish orqali

yoshlarni innovatsion g'oyalarni yaratish va

zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga

rag'batlantirish, o'qituvchilarning malakasini

oshirish, ularni ilg'or pedagogik texnologiyalar

bilan tanishtirish, maktablar, kollejlarni va

universitetlarni jihozlash, mutaxassislarni

ichki va tashqi mehnat bozori ehtiyojlariga

moslashtirish shular jumlasidan.

Xitoy ta'lim tizimi mukammal emas,

albatta. O'ziga yarasha kamchiliklari ham bor.

Biroq ushbu tizimning muvaffaqiyatlarini inkor

etib bo'lmaydi. Mana shu inkor etib bo'lmay

yutuqlar ushbu davlat iqtisodiyotini jadal

rivojlantirayapti.

Yurtimizda ta'lim va ilimga e'tibor

qanchalik kuchli ekanini oxirgi kunlarda bo'lib

o'tgan sohaga daxldor voqealar ham yaqqol

tasdiqlaydi. Binobarin, Prezidentimizning

aloahida e'tibori tufayli pedagoglar munosib

taqdirlandi, rag'batlantirildi. Davlatimiz

rahbari muallimlar bilan yana bir bor samimiy

muloqot qildi. Muloqot jarayonida bildirilgan

fikr-mulohazalar, tashabbus hamda g'oyalarni

esa ushbu yo'lidagi maqsadimiz aniq va ortga

qaytmas ekanligini takror isbotladi. Bu yo'l

esa bizni yangi O'zbekiston taraqqiyoti sari

yetaklaydi.

Bu yil sentyabr oyi yangi O'zbekiston tarixiga ta'limdagi islohotlar navbatdagi bosqichga chiqqan palla sifatida kiradi. Bunday deiyishimizga asoslar bor. 9-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Shuningdek, 15-sentabr kuni davlatimiz rahbari O'qituvchi va murabbiylar kuni oldidan pedagoglar bilan uchrashib, muloqot qildi.

Shu o'rinda videoselektorda ko'tarilgan muhim bir jihatga e'tibor qaratsak. Yig'ilishda ta'lim sifati oshirish va olis hududlardagi o'quvchilarni qulaylik yaratish masalasi muhokama qilindi. Ayni paytda 74 ming o'quvchi maktabga 5-7 kilometr uzoqdan qatnayotgani qayd etildi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida bu muammoga yechim sifatida 100 ta maktabga bepul avtobus qatnovi yo'lga ko'yilgan edi. Shuningdek, aholi yashash hududiga yaqin joylarda yangi maktablar qurilib, foydalanishga topshirildi.

Masalan, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi Baxshitepa-1 va Qoraqari mahallalarida yashovchi 700 ga yaqin o'g'il-qiz hozirgacha 7 kilometr yo'l bosib, qo'shni hududdagi maktablarda tahsil olib kelardi. Ular uchun 66- va 74-maktablar binosi yangidan qurilib foydalanishga topshirildi.

— Avvallari Baxshitepa-1 dan maktabga borish uchun bolalar 4-5 kilometr yo'l bosishga majbur edi. Ular orasida 1-4-sinf o'quvchilari ham bor. Mana endi, 330 o'rinni chiroyli, zamonaviy binoga ega yangi maktab qurildi. Bolalarimiz maktab deganda yo'l azobini emas, bilim zavqini his qiladigan bo'ldi, — deydi mehnat faxriysi Boymurod Xo'janov.

Yangi o'quv yilida foydalanishga

SENTABR MAMLAKATIMIZ TARIXIGA TA'LIM OYLIIGI BO'LIB MUHRLANDI

Yuksalish pallasi

topshirilgan 66-maktabda hozir 230 dan ortiq o'g'il-qiz saboq o'lyapti. Ushbu maktab qurilishi uchun davlat byudjetidan 8 milliard 700 million so'm yo'naltirildi. Maktab zamonaviy jihozlarni, kompyuter jamlanmalarini, darsliklarni, sport anjomlarni hamda texnologiya sinfi uchun zarur vositalar bilan to'liq ta'minladi.

Zuhra Xudoyberdiyeva Sho'rchi tumanidagi 66-maktabning 10-sinf o'quvchisi. U 9 yil uydin 4 kilometr uzoqdagi 51-maktabga qatnab o'qigan.

— Uyi maktabga yaqin sindfoshlarimga doim havasim kelardi. O'shanda mahallamizda ham maktab bo'lishini orzu qilardim. O'sha niyatim ro'yobga chiqdi. Mahallamizda sport zali, texnologiya sinfi bor zamonaviy maktab qurildi. Bundan juda xursandmiz, — deydi Zuhra Xudoyberdiyeva.

Sho'rchi tumanida yangidan qurib foydalanishga topshirilgan 74-maktab esa

qoraariqliklarning 20 yillik orzusini ro'yobga chiqardi. Tuman markazidan salkam 15 kilometr uzoqda joylashgan hududda ham islohotlar real natija ko'rsatmoqda.

Avvalo, ichki yo'llar asfaltlandi. Keyin suv muammosi hal etildi. Endi yangi maktab foydalanishga topshirildi. Hozir 300 dan ortiq o'quvchi tahsil olayotgan bo' ta'lim maskanida barcha shart-sharoit yaratilgan. Muhimi, qoraariqlik yoshlar endi bilim olish uchun 7 kilometr yo'l bosmaydi.

Prezidentimizning o'tgan yil 24-dekabrda "2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, joriy yilda Surxondaryoda 930 o'rinni 8 ta yangi MTT qurildi va 2250 o'rinni 19 ta MTT rekonstruksiya qilindi. Qurilish uchun 101,9 milliard so'm ajratildi. Qarorga binoan 4 ta yangi maktabni



qurish, 52 ta maktabda rekonstruksiya va 9 tasida mukammal ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Mazkur maktablar uchun 178,5 milliard so'm yo'naltirildi.

Bu ishlar, avvalo, qishloq va olis hududlardagi bolalar uchun teng sharoit yaratish, zamonaviy ta'limga keng yo'l ochish uchun nihoyatda zarur. Zero, bilimdon avlod erantari taraqqiyot va raqobatbardosh kelajak kafolatidir.

Faqat moddiy-texnik imkoniyatning o'zi yetarli emas. Sifatli ta'limni yuqori salohiyatli o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Keyingi yillarda muallimlarga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli bu sohaga qiziquvchilar soni sezilarli ortyapti. Xususan, hozir Surxondaryodagi 972 ta umumta'lim muassasasida 47 mingdan ortiq pedagog faoliyat yuritayapti. O'qituvchilar yoshlarga sifatli ta'lim berishi uchun barcha imkoniyat ishga solingan. Elektron vositalardan tortib, yangi avlod darsliklarigacha markazdan chekka hududlarga yetkazib berilyapti.

Yaqinda Prezidentimizning farmoni bilan bilimli, kasb-hunarli, sog'lom va



barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida xizmat qilib kelayotgan bir guruh ta'lim fidoyisi mukofotlangan edi. Ular orasida surxondaryolik 6 nafar ustoz-murabbiy ham bor. Bu vohada kasbining fidoyilari safi kengayib borayotganidan dalolat.

— Har bir mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch — ilm-fan, ta'lim-tarbiya. Shu bois, yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi islohotlar aynan ta'lim sohasidan boshlangan edi. Prezidentimiz tashabbusi va e'tibori bilan soha taraqqiyotida yangi uflar ochildi. O'qituvchilarning jamiyadagi nufuzi, farovonligi oshdi. Zamonaviy sharoitlarda ishlashi uchun imkoniyat yaratildi. Bu e'tibor pedagoglarning yanada katta yutuqlarga erishishida o'ziga xos rag'bat bo'lyapti, — deydi Oltinsoy tumanidagi 9-maktabning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Habibulla Ismatilayev.

Salima Norqo'qchorova 30 yildan buyon Qumqo'rg'on tumanidagi 3-maktabda fizika fanidan dars beradi. Minglab shogirdlarni tarbiyalab, bor kuchini yoshlar ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirgan muallima mehnati sabab "Shuhrat" medaliga munosib ko'riladi.

— Davlatimiz rahbari Prezident sifatida ish boshlagan kunlaridanog, ta'limga, o'qituvchi

shaxsiga, uning hurmat-e'tibori oshishiga alohida e'tibor qaratadi. Ochiq'i, 7-8 yil oldingi vaziyat bilan bugunimiz o'rnatida yer bilan osmoncha farq bor. Shu yil 9-sentyabr kuni o'tkazilgan videoselektorda Prezidentimiz o'qituvchi bilan alohida ta'kidladi: "Ta'lim sifati oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Zero, yangi O'zbekistonda eng muhim soha — ta'lim, eng hurmatli insonlar — o'qituvchi va murabbiylardir!"

Shu gapni eshitib, ko'zimga yosh keldi. Eh-he, bu kunlarni ko'rmagan, lekin bir umr orzu qilgan qanchadan-qancha ustozlar, hamkasblar bor edi, — deydi "Shuhrat" medali sohibi Salima Norqo'qchorova.

Mamlakatimizda ilm-fan rivoji, intellektual salohiyati yuqori yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan islohotlar ko'lami kengayib bormoqda. Bu jarayonda o'z iste'dodi, keng qamrovli ijodiy, ilmiy-amaliy faoliyat bilan faol ishtirok etayotgan o'qituvchi va murabbiylarning alohida o'rni bor. Bunday yuksak e'tirof esa ularga o'z-gacha kayfiyat va shijoat bag'ishlashi shubhasiz.

Sarvar TO'RAYEV,

"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Anor yetishtirish

“

Masturaxon Sayfiddinova oxirgi besh yilda Farg‘ona viloyatida anor yetishtirish hajmi olti barobar oshganini aytdi. Ta’kidlashicha, 2021-yilda 10,2 ming tonna anor hosili olingan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 63,5 ming tonnani tashkil etmoqda. Anorni saqlash, saralash, qadoqlash, konsentrat holda qayta ishlash va shok muzlatish yo‘lga qo‘yilgan. Bu mevani sotib oluvchi davlatlar geografyasi kengaygan. Hozir Yevropa davlatlari ko‘proq xarid qilayotganidan fermerlar xursand.



ILMI PROFESSORI

Ocherk

Hamma ketdi. Nasoschilar boshlig‘i nasosning suv tortadigan joyi qoq o‘rtasidan yorilganini, uning ehtiyot qismi hech qayerda yo‘q ekanini aytdi. “Namanganda ishlab turgan nasos bor ekan. Uni berishmasa kerak”, deb qo‘shimcha qildi u. Bu gapdan Masturaxon yengil tortdi. Ishlab turgan nasos bo‘lsa, uning ehtiyot qismini ham topish mumkin deb o‘yladi.

— Mayli, ishini surishtirishdan boshlaymiz. Men ertalab viloyat markaziga boraman. Zarurat bo‘lsa, qo‘shni viloyatlarga ham o‘taman. Xudo xohlasa, suv bo‘ladi, — dedi-yu mashinaga o‘tirdi.

U ikki kunda vodiyni kezib chiqdi. Bosh suqmagan idorasi qolmadi. Nihoyat vohadagi viloyatlarning biridan daragini topdi. Bu ehtiyot qismini olib kelish uchun yuk mashinasi bir kecha-kunduz vaqt sarfladi. U o‘rnatilganda nasos eski joyidan yana yorildi. Xullas, opa rosa yugurib, oxiri yangi dvigatel topdi. Anorzorlarga suv keldi.

O‘sha voqega ham yigirma yildan oshdi. — Viloyat nasos stansiyalari va elektr tarmoqlari boshqarmasi ishchi-xizmatchilari Quva anorzorlariga faqat nasos orqali suv yetkazib bermoqda. Boshqa yerdan suv olishning iloji yo‘q, — deydi anorzorlardan ko‘z uzmay turgan Masturaxon Sayfiddinova. — Keyingi yillarda boshqa sohalar kabi anorchilikka ham katta e‘tibor berildi.




kunduzning issig‘ida toblangan mevalar rangiga rang kiryapti, shifobaxshligi ortyapti. Anorning foydali tomonlarini o‘rganish uchun bir nechta o‘quv-ilmiy muassasalarda tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Prezidentimizning Farg‘ona viloyatiga tashrifidan keyin Farg‘ona davlat universitetida anorchilik yo‘nalishi bo‘yicha kafedra ochilib, ilmiy tadqiqotlar boshlanib ketdi. Xosiyatxon Umrzoqova

Ulug‘ shoir Abdulla Oripovning bir she‘rida bunday satrlar bor:

*Qarshimda yer sharin suvrati turar,
Salmog‘i Quvaning anoricha bor.
Tim qaro osmonda porlab ko‘rinar,
Shu jaji sayyora ko‘rkam, ulug‘vor.*

Darhaqiqat, she‘rda Quvaning anoriga juda to‘g‘ri ta’rif berilgan. Ilgari Quvaning anorini uzishga oktyabrda kirishilardi. Oxirgi yillarda harorat isib ketishi tufayli bu meva bir oy erta pishmoqda.



Quva anori qadimdan mashhur. Shu yurt farzandi, jamoat arbobi Masturaxon Sayfiddinova 1979-yildagi bir voqeani bunday eslaydi:

“Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekistonning o‘sha paytdagi rahbari Sharof Rashidov Quvaga keldi. U vaqlar Musajon Sherbo‘tayev xo‘jaligimiz raisi edi. Sharof Rashidov gap orasida Musajon akaga bunday savol berdi: — Quva o‘zining nimasi bilan mashhur?”

Sherbo‘tayev shosha-pisha: — Mebeli bilan mashhur. Quva mebeli sifat jihatidan Yevropada ishlab chiqarilayotgan har qanday mebelidan qolishmaydi. Bundan tashqari, Quvada sanoatning boshqa turlari, masalan, qandolatchilik ham tez rivojlanmoqda, — dedi.

Shu joyda Sharof aka Musajon Sherbo‘tayevning gapini bo‘lib:

— Tuman o‘zining nimasi bilan mashhur? Masalan, Oqo‘rg‘on anjiri, Oltiariq bodringi va uzumi, Quva esa anori bilan dunyoga tanilgan. Men shuni so‘radim, — dedi.

Musajon aka respublika rahbarining “Quva o‘zining nimasi bilan mashhur?” degan savolini yaxshi eshitmay qolgan ekan, shekilli, xijolat chekkanidan qizarib ketdi hamda Quva anori haqida bilganlarini gapira boshladi. Men o‘sha paytda Sharof akaning yaqinida turgandim.

— Quvaning dong‘ini dunyoga tanitayotgan narsa — anori, — deya gapini takrorladi Sharof Rashidov.

Hamma qarsak chaldi. Shu bilan Sharof Rashidov Quvada anorchilikka asos solib ketdi. Adashmasam, 1979-yil 26-apreli edi. Qadashga tayyorlab qo‘yilgan anor ko‘chatlari darhol ekildi.

Bugun anorchilik brigadasini tuzamiz va unga boshliq etib shu qizimiz — Masturaxon Sayfiddinovani saylaymiz. Qarshi emasmisizlar? — dedi Sharof aka meni ko‘rsatib. Hamma bir ovozdan “rozimiz” deb qo‘l ko‘tardi. Kelgusi yili anorchilik davlat xo‘jaligi tuzildi va unga direktor etib tayinlandim. Asta-sekin xo‘jalikning moddiy bazasini mustahkamlashga kirishdik.

Qilindigan birinchi ish suv ta‘minotini yaxshilash edi. Buning uchun nasos orqali Janubiy Farg‘ona kanalidan dasht yergalga obihayot chiqarish kerak edi. Yangi nasoslar yo‘q edi. Viloyatning qayerida ishlaydigan nasos bo‘lsa, shuni olishga yordam so‘rab rahbarlar oldiga boraverib charchaganman. Oxiri suvni 50 metrgacha ko‘tarib beradigan nasoslar o‘rnatildi va navbatma-navbat ishlatila boshladi.

Anor navini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratdik. Qayim, tuyatish, achchiq dona, shirin dona, joydari, Quva, Dashnobod kabi anor navlari ko‘chatini saralab eka boshladik. Anorni ko‘mishdan qiyin ish bo‘lmasa kerak. Ochish ham undan qolishmaydi. Bu ishga texnika jalb qilinsa, minglab ishchi kuchi tejaladi. Nihollarni kuzda ko‘mish, bahorda ochish uchun moslangan traktorlarni ishlab chiqish vazifasi shu qishloqning traktorchilari zimmasiga tushdi. Men traktorchilar va bosh muhandis bilan maslahatlashdim.

Inson tafakkuri har narsaga qodir ekan.

Oddiy traktorchilar muhandis rahbarligida sodda universal traktordan anor ko‘chatini ko‘madigan moslama yaratdi”.

Shu yillarda ayol boshi bilan erkaklar ham qilolmaydigan ishlarni uddalab, yuksak samaraga erishgani va ortidan boshqalarni ergashtirgani Masturaxon Sayfiddinovaning obro‘sga obro‘ qo‘shdi. U anorzorlarni qadam-baqadam kezib chiqib, ko‘chatlar to‘liq bo‘lishi uchun kurashdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xo‘jaliklarning mulkchilik shakli o‘zgara boshladi.

— O‘sha yillari anorchilikka e‘tiborni sun‘iy ravishda susaytirganlar bo‘ldi, — deydi Masturaxon opa. — Anorzorlar kamaya boshladi. Lekin baribir Quva anorining dovruq‘ini saqlab qolishga harakat qildik. “Opa, biz sizning yoningizdamin, Quva anorining dong‘i pasaymaydi”, deganlar oz emasdi.

Shu yillarda fermer xo‘jaliklari tuzish zarurati tug‘ildi. Avvaliga fermerchilikka o‘tsak qanday bo‘ladi, uddasidan chiqolmasak, kulgiga qolmaymizmi, deya ikkilanganlar ham bor edi. Shunda Masturaxon Sayfiddinova hammamni ortidan ergashtirdi.

— Fermerlikka o‘tishdan cho‘chimanglar, — dedi ikkilanib turganlarga. — Dunyo tajribasida fermerlik doimo o‘zini oqlagan. — Bilamiz, lekin xorijda tizim boshqacha bo‘lgan-da, — dedi Abduvali degan yigit. — Agar ishimizga avvalgidek boshliqlar, rahbarlar aralasha, qanday ishlashni o‘rgatsa, ko‘zlagan hosilni ololmay uyaliq qolmaymizmi?!

— Endi ortingizda davlat rahbari turibdi, sizlarni himoya qiladi. Bundan buyog‘iga bizniki deb emas, meniki deb ishlaysiz. O‘shanda ishga munosabatingiz o‘zgaradi... Shundan so‘ng fermerlik harakati katta tezlik bilan rivojlana boshladi. Fermer bo‘lish uchun ariza yozganlarning sanog‘i yo‘q edi. Hisoblab ko‘rilsa, bir necha oyda 2000 gektardan ziyod yer yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklariga ikki-uch gektardan bo‘lib berilibdi.

Bu orada Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlar boshlanib ketdi. Quvaliklar hech ikkilanib o‘irmay, deputatlikka Masturaxon Sayfiddinova nomzodini ko‘rsatishdi va saylashdi.

Masturaxon opa xalq deputati sifatida doimo xalq bilan birga edi. Kunlarning birida anorlar

chanqagan paytda ko‘tarma suv nasosi buzilib qoldi, fermerlar opaga shoshilinch telegramma yuborishdi:

“Kelmasangiz bo‘lmaydi, Janubiy Farg‘ona kanalidan suv tortib beradigan nasosimiz umuman ishlamay qoldi. Hech qanday yordam yo‘q. Quva anorining taqdiri xavf ostida! Hamqishloqlaringiz va saylovchilaringiz”.

U o‘ylanib qoldi. Ertaga shanba, indin esa yakshanba. Demak, ikki kunga borib, masalani hal qilib kelsa bo‘ladi. Opa shu xayol bilan yo‘lga chiqdi. Quvaga yetib kelishi bilan fermerlar yoniga bormoqchi bo‘ldi.



— Avval suv masalasi hal qilinadigan joyga borib kelaylik, — deydi opa turmush o‘rtog‘ining “Charchab keldingiz, nonushta qilib chiqarsiz”, deganiga qaramay.

Er-xotin nasos boshiga yetib borganida barcha anorchilik fermer xo‘jaliklarining boshliqlari shu yerda edi. Ular bir zumda Masturaxonni o‘rab oldi. Hammasining kayfiyati yo‘q, yuzi tashvishli edi.

— Tinchlaninglar, hammasi hal bo‘ladi. Hozir uylaringizga borib turinglar. Agar o‘zim eplay olmasam, sizlarni yordamga chaqiraman, — dedi.



Ancha yil oldin e‘tibor bir oz susaygani ham haqiqat. 2016-yildan boshlab e‘tibor mutlaqo o‘zgardi. Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida davlatimiz rahbari anorzorlar kelajagi haqida qimmatli fikrlar bildirdi. Anor ekiladigan yerlarni Farg‘onadan Quvagacha kengaytirish, tumanlardagi eksa bo‘ladigan maydonga anor ekish borasida topshiriqlar berdi.

2020-yil noyabrda Masturaxon Sayfiddinova boshliq guruh Quvadan Surxondaryoga amaliy yordamga yuborildi. Guruh yerlarning holatini o‘rganib, anor ko‘chatlarini ekishga kirishdi. Surxondaryoliklar Farg‘onadan borgan anorchilar tajribasi asosida ish yuritib, bugun yaxshi natijalarga erishmoqda. Anor ko‘chatlari ekilgan maydon uch yilda 5000 gektarga yetdi. Bu yil hosil bera boshladi.

parfumeriya sanoatida ham foydalanilyapti. Yaqinda olimlar undan sil kasalligini davolashda ishlatiladigan dori tayyorladi.

Bugun jarqo‘rg‘onlik, denovlik, dash-nobodlik mirishkorlar ham anor yetishtirishda O‘zbekistondagi birinchi anorchilik xo‘jaligi tashkilotchisi va rahbari, professor Masturaxon Sayfiddinova ilmiy izlanishlari asosida ishlayapti.

Anor yurakni quvvatlantirishidan tashqari faollashtiradi ham. Hozir anordan sil kasalligi uchun dori tayyorlanayotgani muhim yangilik bo‘ldi. Quvada “Anorchilik sohasini yanada rivojlantirish istiqbollari, mavjud muammolar va kelgusidagi dolzarb vazifalar” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Unda barcha viloyatlarning anor yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va eksport qiluvchilari, olim va seleksionerlar ishtirok etdi. Mezbonlar va mehmonlar o‘zaro tajriba almashdi, yig‘ilgan muammolar keng muhokama qilindi.

Anorchilikda Farg‘ona tajribasi paykallarda o‘rganildi. Prezidentimizning viloyatga tashrifidan so‘ng anorchilik ilimga asoslangan sohaga aylandi.

— Bugun Quvaning o‘zida 2000 gektar yerda anorchilik fermer xo‘jaliklari mavjud. Har bir gektardan 35-40 tonna atrofida anor hosili olinib, eksport qilinmoqda, — deydi Quva anor yetishtiruvchilar uyushmasi rahbari, Farg‘ona davlat universiteti faxriy professori Masturaxon Sayfiddinova. — Har bir anorning og‘irligi 200-300 grammacha yetadi. Kechaning sovug‘ini yegan,

anorchilik mavzusida dissertatsiyasini yoqladi. Tadqiqotchi Husniddin Samiyev S gepatitiga qarshi dori ishlab chiqdi. Bunday preparat ilgari yo‘q edi. Endi esa “sariq” kasalligini davolashda qo‘llanilmoqda. Anor sharbati va po‘stlog‘idan ko‘pgina foydali dori-darmonlar ishlab chiqarilayotgani chet elliklarni ham qiziqitiryapti.

Farg‘ona davlat universitetining o‘zida 10 dan ziyod izlanuvchi anorchilik bo‘yicha ilmiy ish bilan shug‘ullanmoqda. Toshkent agrar universiteti, Guliston va Termiz davlat universitetlarida ham izlanuvchi yoshlar anor mevasining foydali tomonlarini tadqiq etmoqda.

Masturaxon Sayfiddinova oxirgi besh yilda Farg‘ona viloyatida anor yetishtirish hajmi olti barobar oshganini aytdi. Ta’kidlashicha, 2021-yilda 10,2 ming tonna anor hosili olingan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 63,5 ming tonnani tashkil etmoqda. Anorni saqlash, saralash, qadoqlash, konsentrat holda qayta ishlash va shok muzlatish yo‘lga qo‘yilgan. Bu mevani sotib oluvchi davlatlar geografyasi kengaygan. Hozir Yevropa davlatlari ko‘proq xarid qilayotganidan fermerlar xursand. Anor yetishtiruvchilar anjumanida surxonlik anorchilarning takliflari, tavsiyalari eshitildi.

Surxondaryo viloyati tumanlarida anor ekilgan maydon 9000 gektarga yetkazilishida Masturaxon opaning salmoqli hisssasi borligini hozir hamma biladi va unga minnatdorligini bildiradi. Sherobodlik mashhur bog‘bon Toji Rasulov o‘zi tuzgan “Rasulov Toji” MCHJda 150 gektar anorzor barpo qilishda opaning tajribasidan foydalaniganini minnatdorlik bilan eslaydi.

Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi anorchi Isroil Ne‘matov Avstriyadan anorni qayta ishlash texnologiyasini olib kelib, ishga tushirdi. Anor doni va boshqa chiqindilaridan sirka ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Buni qarangki, anorning eng oxirgi chiqiti ham chorvaga yem bo‘lar ekan.

Inson dunyoga faqat o‘rgangani va mehnat qilib, el-yurtini yashnatgani keladi. Manmanlikdan, kibr-havodan hech kim foyda ko‘rgan emas. Yoshligidan o‘qib, o‘rgangan va mehnatni iqboli deb bilgan, Quva anori dong‘ini dunyoga taratishga hissa qo‘shayotgan Masturaxon Sayfiddinovaning hayot yo‘li shu. U hamon safda, bir zum ham izlanishdan to‘xtaganini yo‘q.

Hamid BURHON,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a‘zosi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
34830 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 11:10

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05